

...tomonidan yozilgan: Edward Hughes

...tomonidan ilustrasiya qilingan:
Byron Unger; Lazarus

...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan:
M. Maillot; Sarah S.

Alastair Paterson

...tomonidan ishlab chiqarilgan: Bible for Children
www.M1914.org

©2020 Bible for Children, Inc.

Lisenzia: Bu hikoyani chop etishingiz yoki nusxa ko'chirishingiz mumkin.
Lekin u sotilmaydi.



Iso suvga
cho'nganda,
Xudo shunday
degandi, "Bu
Mening Sevimli
O'g'limdir,
Undan
Mamnunman."
Xudoning
Muqaddas Ruhi
Isoning ustiga
kabutar
qiyofasida
tushgandi.



Shundan so'ng,
Xudoning Muqaddas
Ruhi Isoni cho'l tomon
olib bordi. Iso u erda
yolg'iz edi.



Iso qirq kun ro'za tutdi. Ya'ni,
Iso umuman ovqat yemadi. U
nihoyatda och edi.



Muqaddas Kitobda aytilishicha yovoyi hayvonlar ham o'sha erda bor edi.



Shayton Isoni vasvasaga solish uchun keldi. Uzoq vaqt oldin, Adan bog'ida o'sha Shayton Odam Ato va Momo Havoni vasvasaga solgandi va ular Xudoga bo'ysinishmagandi. Endi ular kabi Iso ham sinovdan o'tishi kerak.



Shayton Xudoning
O'g'li Isoni ham
vasvasaga solishga
harakat qiladi.



"Agar Sen Xudoning O'g'li bo'lsang," deydi Shayton, "bu toshlarni nonga aylantir."
Isoning ochligini u bilardi.
Xudoning O'g'li toshni nonga aylantira olishini u bilardi. Iso Shaytonning gapiga kirarmikan?



Yo'q! Iso Shaytonning gapiga kirmadi. Aksincha, Iso unga Xudoning Kalomi orqali javob berdi. "Inson faqat non bilan yashamas, balki Xudoning og'zidan chiqadigan har bir so'z bilan yashaydi."



Shundan so'ng, Shayton Isoni buyuk Quddus shahridagi odamlar Xudoga topinadigan muqaddas ma'badga olib bordi. Endi Shayton nima qilar ekan?



"Agar Sen Xudoning O'g'li bo'lsang, pastga sakra" dedi Shayton. "Xudo Kalomida Uning farishtalari Seni qutqaradi deyilgan axir."



"Yo'q!" dedi Iso. "Yana yozilganki ... 'Xudoni imtihon qilma.'"






Shayton yana bir bor harakat qilib ko'rdi. U Isoni shahardan tashqariga, baland tog' cho'qqisiga olib bordi.



Isoga erdagi har bir shohliklar
ulug'vorligini ko'rsatib,
Shayton shunday dedi, "Agar
Sen tiz cho'kib menga sajda
qilsang, bularning hammasini
Senga beraman."



"Yo'qol mendan, Shayton!" buyurdi Iso. "Yozilganki ... 'Faqat Xudoga sajda qil va faqatgina Unga xizmat qil.'"



Shunda Shayton
Isoni tark etdi.
Keyin ajoyib hodisa
ro'y berdi. Xudo
Shaytonga quloq
solmagan O'g'li
Isoga taskin
berish uchun
farishtalarni
yubordi.



Iso uchun Mudhish Vaqt

Hikoya Xudo Kalomi Injildan olingan

...dan topilgan

Matto 4-bob, Luqo 4-bob

"Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar."

Zabur 119:130



Hikoya tugadi



Bu Kalomdagi Hikoya bizlarga, Xudoning bizlarni ajoyib qilib yaratganligi haqida va biz Uni tanib bilishimiz qanchalik muhim ekanligi haqida hikoya qilib beradi.

Xudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim lekin Xudo olamni shunchalik sevdiki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun xochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Unga ishongan kishi halok bo'lmaydi balki abadiy hayotga ega bo'ladi. Agar siz Isoga ishonsangiz, Undan gunohlaringiz uchun kechirim so'rang, U gunoharingizni kechiradi. U sizning yuragingizga kelib yashaydi va siz U bilan abadiy yashaysiz.

Agar siz bu so'zlar haqiqatligiga ishonsangiz, Xudoga shunday deb ayting:
Qadrli Iso, Men Sening Xudoliginga ishonaman, Sen yer yuziga kelib mening gunohlarim uchun o'lding, va Sen yana hozir tiriksan va bir kuni men sen bilan abadiy bo'laman. Men hozir yangi hayot bilan yashayman, iltimos mening hayotimga kel, men Senga itoat qilishim uchun va Sening farzanding bo'lishim uchun yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Xudo bilan har kuni suhbatlashing!
Yuhanno 3:16

